

Toshkentda Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi tahlil markazlari birinchi forumi bo'lib o'tadi



MARKAZIY OSIYO VA KADHK TAHLIL MARKAZLARI BIRINCHI FORUMI

Markaziy Osiyo – Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash: tarixiy aloqalardan keng qamrovli hamkorlik sari

2025-yil 28-29-aprel, Toshkent

المنتدى الأول لمراكز الفكر بين دول مجلس التعاون لدول الخليج العربية ودول آسيا الوسطى

"تعزيز الشراكة الاستراتيجية بين دول مجلس التعاون لدول الخليج العربية ودول آسيا الوسطى: من الروابط التاريخية إلى التعاون الشامل"

28-29 أبريل 2025م في مدينة طشقند، جمهورية أوزبكستان

FIRST CENTRAL ASIA – GCC THINK TANK FORUM

Strengthening Strategic Partnership Between Central Asia and the GCC:
From Historical Ties to Comprehensive Cooperation

April 28-29, 2025, Tashkent

 INSTITUTE FOR STRATEGIC AND REGIONAL STUDIES
UNDER THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN

 مركز الخليج للأبحاث
المعرفة للجميع
Gulf Research Center
Knowledge for All

2025-yilning 28-29-aprel kunlari Toshkent shahrida "Strategik sheriklikni mustahkamlash: tarixiy aloqalardan keng qamrovli hamkorlik sari" mavzusida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi(KADHK) tahlil markazlari birinchi forumi bo'lib o'tadi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Saudiya Arabistonining "Gulf Research Center" tadqiqot markazi tomonidan tashkil etilmoqda.

Forum Markaziy Osiyo mamlakatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston) va KADHK (Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Quvayt, Ummon, Bahrayn) dan 70 dan ortiq nufuzli mutaxassislarni bir joyga to'playdi hamda ikki ulkan makromintaqaning kelajakdagi hamkorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tadbirga KADHK Kotibiyati, diplomatik korpus va ishbiarmon doira vakillari ham taklif etilgan.

Forum ishtirokchilari Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ko'rfaz arab davlatlari o'rtasidagi joriy va istiqboldagi hamkorlikning muhim jihatlarini muhokama qiladilar. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha siyosiy muloqotni va o'zaro kelishilgan yondashuvlarni mustahkamlash, savdo va investitsiya aloqalarini chuqurlashtirish, "yashil" energetika va transport yo'laklarini rivojlantirish sohalarida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalalari ekspertlar diqqat markazida bo'ladi.

Mintaqalararo hamkorlikka sifat jihatidan yangi sur'at baxsh etadigan hamda mamlakatlar o'rtasidagi birgalikdagi rivojlanish salohiyatini to'liq namoyish etuvchi amaliy tashabbuslarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

Qo'shma bayonot qabul qilinishi hamda Markaziy Osiyo va KADHK tahlil markazlari o'rtasida hamkorlik memorandumlari imzolanishi Forumdan kutilayotgan asosiy natijalardan hisoblanadi. Mazkur hujjatlar ikki mintaqa ekspert hamjamiyatlari o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun mustahkam poydevor yaratishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, ishlab chiqilgan tavsiyalar Samarqandda o'tkazilishi rejalashtirilgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ko'rfaz arab davlatlari yetakchilarining ikkinchi sammiti kun tartibini boyitishga muhim hissa qo'shadi.

Bo'lajak forum Markaziy Osiyo va Ko'rfaz mamlakatlari o'rtasidagi uzoq muddatli sheriklikni

mustahkamlashga xizmat qilib, umumiy tarixiy merosni qayta tiklash va ko'p qirrali muloqotni mustahkamlash uchun yangi yo'nalishlarni belgilab beradi.